

## **Navbatdagi ko'chma mashg'ulot darsi**

Yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun ta'lif-tarbiya sohasida ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganiday, "Innovatsyon g'oya va texnologiyalar asosida yoshlarning maqsad va vazifalari, ularning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini, obro'-e'tiborini oshirishga alohida qarataylik". Shu maqsadda "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti 3 kurs 308 - guruh talabalariga "Fotogrammetriya va yerni masofadan zondlash" fanidan ko'chma amaliyat darsi tashkil etildi. Ko'chma amaliyat darsi "Grand kapital qurilish" korxonasida o'tkazildi. Talabalar u yerda hozirgi kunda Respublikamizda qurilayotgan zamonaviy bino inshootlar ko'rgazmasi bilan tanishdilar. Talabalarimizga o'qish-o'rganish, doimiy izlanish, ilm-fanga, taraqqiyot cho'qqilarini egallashga intilib yashash doimo hamrohimiz bo'lsin.



**"Geodeziya va geoinformatika" kafedrasи o'qituvchisi O'tkir Islomov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**